



**Turkic
World**



Мемлекет тарихы
институты



Жас тарихшылардың
республикалық қауымдастығы





ҚАЗАҚСТАН ЖӘНЕ ТҮРКІ ӘЛЕМІ:

қоғамдық ғылымдар саласындағы
өзекті мәселелер

KAZAKHSTAN AND THE TURKIC WORLD:

actual problems in the field
of social sciences



Дилноза Жамолова, Маҳмудхўжа Бехбудийнинг Туркистондаги сиёсий жараёнларга муносабати.....	180
Feruz Boboyev, Armed movement against The soviet rule in the Turkmen SSR (1925-1926).....	184
Nilufar Jumaeva, Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan (XIX asr oxiri-XX asr boshlari).....	195
Ойбек Кличев, “Туркистон тўплами”да Амирзода Сайид Мир Абдулфаттоҳ элчилигининг ёритилиши.....	202
Бахтияр Курбанов, Туркистон-Сибирь темир йўлининг барпо этилиши ва унинг аҳамияти.....	206
Манзила Қурбонова, Туркий халқларда сутли таомлар (этнографик таҳлил).....	211
Бахтиёр Мирзаджанов, Проблема национальных кадров и их равного представления в государственных органах и учреждениях Туркестана.....	219
Бахтиёр Мирзаджанов, Вопросы равного представления в государственных органах и учреждениях Туркестана.....	225
Mirzadjanov B. T., Aizbek Boymirzayev, Muqaddas Azizova, Women’s issue in Turkestan (1917-1924).....	232
Сардорбек Мирзахалов, Ёшлар тадбиркорлигини давлат томонидан қўллаб-қувватланишининг меъорий-хуқуқий асослари.....	235
Мухаммадали Мубинов, Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiqda O`rta Osiyo xonliklaridagi shaharlarning ishtiroki, savdo-sotiqda amal qilgan qoidalar va narx navo.....	243
Dilrabo Murodova, Buxoro viloyati davlat arxivi fondlarida lotinlashtirish masalalari.....	250
Müşviq Mustafayev, Südabə Hüseynova, Günel Aslanova, Sosial adaptasiya sosiallaşmanın xüsusi forması kimi.....	256
Бунёд Насиров, Парикмахерское и банное дела в Узбекистане (в период Советской власти).....	261
Бунёд Насиров, Совет ҳукумати даврида Ўзбекистонда ижтимоий-маиший инфраструктуралар фаолияти.....	266
Alisher Nigmatov, XX asr 20-90-yillarda O‘zbekistonda etnik tarkib va aholi sonining kengayishi.....	271

**BUXORO VILOYATI DAVLAT ARXIVI FONDLARIDA
LOTINLASHTIRISH MASALALARI*****Murodova Dilrabo Shomurodovna,****Buxoro Davlat Universiteti Stajyor-tadqiqotchisi
(O'zbekiston Respublikasi)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 20 - yillarida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining O'zbekistonda joriy etilishi va u bilan bog'liq muammolarning arxiv manbalarida aks etish jarayonlariga tarixiy baho beriladi va bu borada bugungi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan alifbo islohoti tahlil etiladi. Dastlab O'rta Osiyoda lotinlashtirish g'oyasining asoschisi bo'lmish Abdurauf Fitrat va uning tashabbusi bilan tashkil etilgan "Chig'atoy gurungi" tashkiloti va uning faoliyati, lotinlashtirish g'oyasiga mahalliy ziyolilarning munosabati aks etgan tarixiy jarayonlar, bu borada ilgari surilgan takliflar, qarashlar tarixiy hujjatlar orqali yoritiladi. Imiy izlanishlarimiz natijasida Buxoro viloyat Davlat arxivining ta'lim muassasalariga oid fondlarida mavjud bo'lgan lotinlashtirish islohoti bilan bog'liq bo'lgan arxiv hujjatlari orqali O'zbekistonda amalga oshirilgan lotinlashtirish islohotlari tarixiy nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Tayanch so'zlar: Buxoro viloyat Davlat arxivi (BVDA), arxiv fondlari, hujjatlar, alifbo, lotinlashtirish, loyiha, taklif.

Abstrakt: This article gives a historical assessment of the processes of the introduction of the Uzbek alphabet based on Latin script in the 20th century in Uzbekistan and reflection of the problems associated with it in the archive sources, and in this regard the analysis of the alphabet reform carried out in today's Uzbekistan. Abdurauf Fitrat, who was originally the founder of the idea of Latinization in Central Asia and the organization "Chigatoy gurungi" founded on his initiative and its activities, historical processes reflecting the attitude of local intelligentsia to the idea of Latinization, the proposals and views put forward in this regard are covered by historical documents. As a result of our LMI research, the Latinization reforms carried out in Uzbekistan through archival documents related to the Latinization reform existing in the funds of educational institutions of the Bukhara Regional State Archive are analyzed from a historical point of view.

Keywords: Buxoro Regional State Archive (BVDA), archive funds, documents, Alphabet, Latinization, project, proposal.

Bugungi kunda O'zbekistonda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi o'tish borasidagi hukumat qaqori yuzasidan qizgin fikr-mulohazalar o'rta tashlanmoqda. Aslida bu masala uzoq yillar ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilinib kelmoqda. 1993 yil 2 sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi" qonuni qabul

qiilinib, Oliy Kengashining 1993 yil 2-3 sentabrdagi XII - chaqiriq XIII - sessiyasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risidagi qarori qabul tasdiqlangan. Ushbu qonunlar asosida qabul qilingan o'zbek alifbosi dastlab 31 harf va bir tutuq belgisidan iborat edi. Mazkur ishar Davlat komissiyasi zimmasiga yuqlatilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktab, o'rta va oliy o'quv yurtlarida, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jamoat birlashmalarida lotin alifbosiga bosqishma – bosqich o'tishni ishlarini tashkil etish yuqlatildi. Yangi alifboga o'tish jarayoni 2000-yil 1-sentabrigha qadar to'liq tugallanishi belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 6 mayda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Oliy Kengash qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonuni qabul qildi. Bu hujjatda o'zbek alifbosi 26 ta harf, 3 ta harf birikmasidan iborat ekanligi ta'qidlandi.

Yangi alifboni joriy etish va takomillashtirish bo'yicha o'zbek alifbosini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va uning qo'llanishini osonlashtirish, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga yanada moslashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. 2020 yil 20 oktabrda O'zbekiston Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash vazifalari qo'yildi. 2021 yil 10 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda shaxsni tasdiqlovchi guvohnomalar, ID-kartalar, turli blankalar, ish qog'ozlari bundan tashqari, markaziy, mahalliy bosma va elektron OAV, internet saytlari, nashr uytotlar, matbaa korxonalari, rasmiy veb saytlar faoliyati to'liq lotin yozuviga asoslan o'zbek alifbosiga o'tkazilishi belgilandi (<https://www.lex.uz/docs/>).

Yozuv tarixi o'zbek xalqining madaniyati, im-fani, ma'rifati, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq tarixning ajralmas qismidir. O'zbek yozuvining so'nggi bir asrlik tarixiga oid materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrda yozuvning ijtimoiy-ma'rifiy hayotimizdagi o'rnini to'g'ri tushungan, shu boisdan yozuvni demokratlashtirish va milliy lashtirish g'oyasini jonkuyarlik bilan targ'ib etgan ma'rifatchi yurtdoshlarimiz anchagina bo'lgan. XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrda Ashurali Zohiriy, Fitrat, Elbek, M. Shermuhammad, Toshmat, Shokirjon Rahim, Rahim In'omov, M. Usmon, S. Uyg'ur, G'ozim Olim, Otajon Hoshim, Mannon Ramz, A. Yo'ldosh, Yoqub Omon, Ibrohim Tohiriy, S. Ibrohim o'g'li, Orif Olimjonov, Botu, M. Rasuliy, Bekjon Raxmon o'g'li, Shokir Sulaymon, Qayum Ramazon kabi qator ziyolilarimiz alifbo va imlo islohotlari ishida faol ishtirok etishgan (H. Jamolxonov, A. Umarov, 2017. – 5 b). O'zbek yozuvining XX asr tarixi murakkab jarayonlarga boy bo'ldi: bu davrda yozuv uch marta isloh qilindi – bir grafik tizimdan boshqa grafik tizimga ko'chirildi. Jahon xalqlarining

yozuv tarixida bunday hodisa kamdan kam uchraydi. Mavjud manba va hujjatlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, o'zbek yozuvining XX asr tarixi to'rt davrni o'z ichiga oladi:

1-davr – arab grafikasiga asoslangan (1900-1929 yillar).

2-davr – lotin grafikasiga asoslangan (1929-1940 yillar).

3-davr – rus grafikasiga (kirilitsaga) asoslangan (1940-1993 yillar).

4-davr – ikki yozuvlilikka (rus-o'zbek va yangi lotin-o'zbek alibolariga) asoslangan yillar (1993-2010 yillar).

O'zbek yozuvi tarixida lotin yozuviga asoslangan alifboning bir nechta variantlari qabul qilinganligini tarixiy tajribada ko'rishimiz mumkin: 1.1929-1934 yillar alifbosi, 2.1934-1940 yillar alifbosi, 3.1993-1995 yillar alifbosi, 4.1995 yil va hozirgi amaldagi alifbodan iborat. Alifbodalaridagi harflar ko'rinishi va talaffuzi jihatidan farqli xususiyatlarga ega bo'lib, bu ham o'z navbatida jamiyatda ilmiy saviyaning pasayishiga olib keldi. Tarixiy tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yozuv bilan bog'liq o'zgarishlar sovet hokimiyati tomonidan XX asrda bir necha bor amalga oshirildi. Bu sovetlarning madaniy merosni inkor etish g'oyasi asosida amalga oshirilib, xalqimiz uchun qadriyat va milliy merosga aylangan amaldagi arab yozuvini lotin alifbosiga almashtirish haqidagi 1929 yildagi qarorda o'z aksini topgan edi.

1919 yil Toshkentda Fitrat boshchiligida til-imlo va adabiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi to'garak-seminar "Chig'atoy gurungi" jamiyati tashkil topadi. Bu haqda "Ishtirokiun" gazetasi shunday yozilgan: "Toshkentda yosh buxoroliklarning faol a'zolaridan Fitrat afandi ila o'zbek yoshlaridan "Chig'atoy gurungi" nomli yangi bir jamiyat tuzilgan. Milliy ishlar komissariati tarafidan tasdiq etilib ishga kirishkan. Bu jamiyatning maqsadi: Turkistondagi eski va yangi turkiy asarlarni jam qilib, turkiy tilni ihyo qiluv haqinda materiyol hozirlamoq, lug'at va adabiyot dunyosini boyitmoqdir" (H.Jamolxonov, A.Umarov, 2017. – 10 b).

XX asr boshlarida mintaqadagi keskin ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ayniqsa, maorif va ta'lim ishlarida, yozuv amaliyoti, o'qish ko'nikmalarida qator qiyinchiliklarni keltirib chiqargan, matbaa – bosmaxona ishlarini murakkablashtirgani bois ham "Chig'atoy gurungi" jamiyati xalqni dunyoviy taraqqiyot sari olib chiqish maqsadida alifbo va imlo muammolari bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan edi. 1921 yil 1-5 yanvarida Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi o'lka o'zbek tili va imlosi qurultoyida Abdurauf Fitrat so'zga chiqib, maktab masalasining muvaffaqiyatli hal etilishida imloning o'ziga yarasha o'rni bor ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning ma'ruzasida quyidagi asosli fikrlar keltirilgan edi: "Maktab masalasining eng muhim rukni imlo masalasidir. Maktab masalasi qancha kengaysa, qancha yurusa imlo masalasi ham shunga qarab kengayar, yurushar. Butun millatlar yozuni o'qimog'och ma'noni anglay olmaydilar. Ma'noni onglamoq uchun yozuni o'qiydilar. Biz esa ma'noni onglay olmasaq yozuni o'qiyolmaymiz. Eski yozumizda bir qadar qiyinliq, buzuqliqlar bor ekan, biz hukumatimizning maorif programmasidan boshqa millatlar qatorida foydalana olmaymiz, unlardan keyin qolamiz. Boshqalar bir yarim oyda savod chiqarsalar, biz yarim yilda chiqaramiz, boshqalar bir yarim oyda butun sinf bolalarining savodini chiqarsalar, biz yarim yilda bir sinf bolalarining yuzdan

elliktasini ham savodini chiqara olmaymiz. Mana yangi imlochilarimizning mantiqi: bularni yangi imloga majbur qilg'on sabablar shulardir... (H. Jamolxonov, A. Umarov, 2017.-14 b).

XX asrning 20-yillarida alifboni o'zgartirish masalasi qator ziyolilar o'rtasidagi keskin tortishuvlarga sabab bo'lgan edi. Bu munozarali chiqishlar "Til, atama va imlo bahslari" ruknida "Ishtirokiun", "Farg'ona", "Turkiston", "Qizil bayroq", "Qizil O'zbekiston", "Pravda Vostoka" gazetalari, "Maorif va o'qitg'uchi", "Alanga" jurnallarida aks etgan bo'lib, ma'rifatparvar ziyolilar "mushtarak turk alifbosi" g'oyasining mohiyatini o'z qarashlarida xalqqa ochib bergan edilar.

1926 yil martida Boku shahrida bo'lib o'tgan I Umumittifoq turkshunoslar anjumani ham bu muammo qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Albatta, islohot o'tkazishdan maqsad, avvalo arab imlosiga qaraganda ancha yengil o'zlashtiriladigan lotin imlosini o'rganish bilan savodsizlikni mumkin qadar tezroq tugatish uchun intilish ekanligini sezish qiyin emas. Ammo, yozuvning lotinlashtirilishiga qarshi turgan muxoliflar, sovetlarning bu yo'li ko'p millatli Sovet O'rta Osiyosi xalqlarini Sharq musulmon mamlakatlaridan sun'iy ravishda ajratib olib, ular uchun alohida yangi madaniyat va tarix yaratishni maqsad qilib qo'yanlar, degan fikrlari mutlaqo to'g'ri ekanligini hayotning o'zi tasdiqladi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2000. - 391.).

O'zbekistonda amalga oshirilgan lotinlashtirish siyosati o'z navbatida hukmron mafkuraning mintaqadagi mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda to'sqinlik qiluvchi siyosiy sabablarga ham ega edi. Bu o'rinda O'rta Osiyo xalqlarining ayniqsa, jadid ziyolilarining qo'shni Turkiya bilan yaqin aloqalarini ta'kidlab o'tish joizdir. O'z davrida lotinlashtirish siyosati taniqli tilshunos olimlardan lug'atshunos, 2 jildlik birinchi o'zbekcha-ruscha lug'atning muallifi – Gozi Olim Yunusov, taniqli oqituvchilar – Qayum Ramazonov, Abbdurahim Yo'ldoshev, Po'latxon Qayumov va boshqalar qarshi turgan edilar. Ular bu islohotni madaniy bilimsizlik deb baholadilar. Lotin yozuvi O'zbek xalqi va yozuvi tarixida ikki marta joriy etilgan bo'lib, dastlabki qaror 1929 yil 15-23 mayda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Respublika adiblari, til-imlochilari va ziyolilar ishtirokidagi konferensiyada qabul qilingan va bu qaror 1929 yil 10 avgustda O'zSSR Xalq maorif komissarligi hay'ati tomonidan tasdiqlangan edi. Konferensiyada singarmonizm – ya'ni, ohangdoshlik, uyg'unlik yoki unlilar garmoniyasi sifatida e'tirof etilgan fonetik hodisa o'zbek adabiy tili uchun xos deb topilishi natijasida 9 ta unli uchun alohida harflar kiritilgan. Biroq, shu asosda ishlab chiqilgan imlo qoidalari o'zini oqlamagani uchun 1934 yildagi navbatdagi Til va imlo masalalariga bag'ishlangan Respublika qurultoyida bu masala qayta ko'rilib, alifboga tegishli o'zgarishlar kitiladi. (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.2005.- 430 bet).

Ixtiyoriylikdan ko'ra ko'proq majburiylikka asoslangan bu jarayon Moskvada ishlangan reja asosida amalga oshirilgan edi. Samarqand konferensiyasida qabul qilingan "lotinlashtirilgan o'zbek alifbosi" 33 ta harf va bir belgidan iborat bo'lgan. Ushbu alifboning tarixiy asl holati bugungi kunda Buxoro viloyati arxiv fondlarida mavjud bo'lib, bugungi alifbo bilan solishtirib tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi (BVDA, 24-bet.)

1929 yilgi alifbo asosida yozilgan arxiv manbalarini tahlil qilib o'rganish jarayoni biz uchun ham bir qator qiyinchiliklarni tug'dirdi. Masalan, 1929 yil 9 fevraldagi

O'zbekiston SSR MIQ huzuridagi Yangi lotin alifbosi qo'mitasining № 1322 xatidagi lotinlashtirish jarayoni bilan bog'liq vazifalar va majburiyatlarni tasdiqlovchi rahbariyat muhridagi yozuvda uch tilda: arab, lotin, kirill alifbosidagi harflar aks etgan. Yoki matndagi so'zlarni yozishda ham jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Harflarni bugungi alifbodagi harflar orqali o'qiganimizda boshqa tovushlar talaffuzi kelib chiqadi. Bundan tashqari ba'zi so'zlarda kirill alifbosidagi harflar ham qo'shib yuborilganligini ko'ramiz. (BVDA, 2-bet).

Buxoro viloyat davlat arxivining ta'lim muassasalari faoliyatiga oid hujjatlarni o'rganish jarayonida O'zbekiston tarixining mustamlakachilik davri muammolaridan biri hisoblangan til siyosati va lotinlashtirish masalalari yoritilgan hujjatlar bilan ham tanishdim. Olib borilayotgan dastlabki tadqiqotlarimizda viloyat arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlarda XX asrning 20-30 yillarida Buxoroda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy islohotlar qatorida jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim omil hisoblangan yozuv masalasi ham keng yoritilgan.

Mavjud arxiv manbalarini ko'zdan kechirganimizda Buxoroda ham 1927-1930 yillarda savodsizlikni tugatish maqsadida, ayniqsa, bu tadbirga o'zbek xotin-qizlarini keng jalb qilish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar va lotinlashtirish kurslari uchun kerakli darslik va adabiyotlarga ajratilgan mablag'lar ko'rsatilgan (BVDA, 38-bet). Buxoro viloyati davlat arxivining ta'lim muassasalari faoliyatiga oid fondlarini o'rganish jarayonida Buxoroda lotin yozuvi bilan bog'liq islohotlarining amalga oshirilishi, ayniqsa bu jarayon birinchi navbatda ta'lim muassasalari va ularning xodimlari orasida mafkuraviy targ'ibot va tashviqot ishlari asosida olib borilganligini mavjud hujjatlar asosida ko'rishimiz mumkin. (BVDA, 50-bet).

Til va yozuv bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy islohotlar ko'p millatli Buxoro zaminida xalq uchun murakkab bo'lgan tarixiy sharoitda olib borilganligi arxiv manbalarida aks etgan bo'lib, ularda XX asrning 20-30 yillarida Eski Buxoro shahrida o'zbek, tojik, qirg'iz, turkman, rus, tatar, arman, fors, afg'on, yahudiy, ukrain, belorus, latish, polyak, turk va hatto, O'zbekiston Tropik meditsina institutining Buxoro va G'ijduvondagi bo'limlari xodimlarining 1928 yil 15 dekabrda yangi alifboni bilish darajalari ko'rsatilgan ro'yxatda eston, chex, german millatiga tegishli xodimlar borligi ham qayd etilgan (BVDA, 117-bet).

Shu o'rinda Buxoro xalqining etnik tarkibi, urf-odatlar, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarziga oid tarixiy ma'lumotlar Buxoro viloyat davlat arxivining ta'lim tizimiga oid fondlarda keng yoritilganligini alohida ta'kidlash lozim. Biroq, yangi alifboni joriy etish va o'zbek tilini o'rganish bilan bog'liq isloholar nuqtai nazaridan, lotin yozuvini jamiyat hayotiga olib kirish tashabbuskori bo'lgan Abdurauf Fitratning ona shahri Buxoro sharifida ham O'zbekistonning boshqa xududlarida bo'lgani kabi qator ziddiyatlar va qiyinchiklar asosida kechganligini ko'rishimiz mumkin. Bu davr tarixiy jarayonlarini ko'zdan kechirganda lotinlashtirish islohotini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatgan bir nechta tarixiy omillarni keltirish mumkin.

Buxoro ijroya qo'mitasining 1928-1929 yilgi qator bayonnomalarida yangi alifbo va o'zbek tilini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan hukumat tadbirlarining Buxorodagi

ijrosi bo'yicha tarixiy dalillar yoritilgan bo'lib, jumladan, maktablarda savodsizlikka qarshi kurash bo'yicha yo'l qo'yilgan tartibsizliklar, lotin alifbosini o'rgatish bo'yicha savodsizlikka qarshi kurash oyligi tadbirlari va ta'lim tizimi uchun eng muhim omil bo'lgan darsliklar bilan ta'minlanish holatlari aks ettirilgan (BVDA, 252-b). Alifbo va imlo islohotlarining tashkiliy jihatlarini yorituvchi tarixiy jarayonlar ham arxiv hujjatlarida aks etgan bo'lib, jumladan, savodsizlikni bitirish kurslarining tashkil etilishi, isloh etilgan alifboda darsliklar yaratilishi, barcha bosqichdagi maktablarda ta'limning yangi alifboga ko'chirilishi bilan bog'liq Buxorodagi jarayonlar yetarlicha aks ettirilgan. Masalan, Buxoro okrug ijroya qo'mitasi qoshidagi o'zbek yangi alifbo okrug qo'mitasi yozishmalari va hisobotlarida Buxoro shahrida tashkil etilgan 14 ta yangi alifbo kurslarining ro'yxatlari keltiriladi. Jumladan, birinchi sinf tayanch maktabi Sayax guzarida, ikkinchi qizlar maktabi Po'stindo'zon guzarida, yana bir tayanch maktabi Muftizoda guzarida, Turon maktabi Korxonada guzarida, ozarbayjon maktabi Gavkushon guzarida, F.Xo'jayev maktabi Sharifjon guzarida, Zuhriya maktabi Mehtar ambar guzarida, birinchi qizlar kursi Labi hovuz arbob xududida, to'rtinchi qizlar maktabi Sagahsi guzarida, Kim maktabi esa Minnet guzarida bo'lganligi qayd etilgan (BVDA, 71-b).

Yana bir hujjatda yangi o'zbek alifbosi markaziy komiteti tomonidan Buxoro Xududiy Xalq Ta'limi bo'limiga 1927-1928 o'quv yili uchun lotinlashtirish kurslarini ochishga 500 rubl so'ralgani qayd etilgan bo'lib, biroq keyingi jarayonda 1940-yilgi yangi yozuv islohoti natijasida bu tadbirlar xalq manfaati uchun xizmat qilmaganligini ko'rsatadi (BVDA. 52-b). Lotin tilini amalda 1928 yil 1 oktabrdan boshlab joriy etish bo'yicha hukumat ko'rsatmalari bo'yicha yozishmalar ham Buxoro viloyat davlat arxivining ta'lim tizimiga oid fondlarida saqlanadi. Bu hujjatlarda qayd etilishicha, Buxorodagi lotinlashtirish islohotlari bo'yicha rasmiy xabarlar "Alanga" jurnali va "Azad Buxara" gazetalarida yangi alifbo asosida nashr etilganligi ko'satilgan (BVDA.133-B). Mahalliy aholining turmush tarzi, tarixiy an'analari, qadriyatlarni o'zida aks ettirgan minglab arab yozuvidagi nodir manbalardan xalqni mahrum etgan holda amalga oshirilgan lotinlashtirish siyosati va u bilan bog'liq g'oyaviy targ'ibot ishlarining barchasi 30-yillarning oxiriga kelib mutlaqo keraksiz bo'lib qoldi. Yozuvni lotinlashtirish uchun ishlatilgan katta mablag'lar esa bekor ketdi. Chunki, bu davrga kelib, hech qanday tashviqotsiz, buyruq tarzida yozuvning navbatdagi yangi islohoti-kirilitsaga o'tish haqida qaror qabul qilindi. 1940 yil may oyida O'zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida T.N.Qoriniyozovning ma'ruzasi bo'yicha yozuvning rus grafikasiga o'tkazish haqida ko'rsatma berildi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2000. – 393b). Bir asrlik tarixga ega bo'lgan lotinlashtirish jarayoni yaqin tariximizda juda ham ko'p sinovli bosqichlardan o'tganligini yuqoridagi ma'lumotlar ko'rsatib turibdi. Biroq haligacha bu masalaga aniq ilmiy yondashuvlarning yo'qligi ko'rinib turibdi. XX asr boshlaridayoq jadid taraqqiyparvarlar tomonidan dunyoga chiqish mezoni sifatida e'tibor qaratilgan til va yozuv masalasi bugungi kunda ham jamiyatimiz oldidagi o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. <https://www.lex.uz/docs/>
2. Hasanboy Jamolxonov, Abdusalom Umarov. O'zbek yozuvining XX asr tarixi. 1- kitob. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2017. – 5 b.
3. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.-391b
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - Toshkent, 2005.- 430 bet.
5. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 27-ish, 24-bet.
6. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 115-ish, 2-bet
7. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 30-ish, 38-bet.
8. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 30-ish, 50-bet.
9. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 141-ish, 117-bet.
10. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 119-ish, 252-bet.
11. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 242-ish, 71-bet.
12. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 27-ish, 52-bet.
13. Buxoro viloyat davlat arxivi, 43-fond, 1-ro`yxat, 117-ish, 134-bet.

SOSIAL ADAPTASIYA SOSIALLAŞMANIN XÜSUSİ FORMASI KİMİ

Müşviq Mustafayev,

*Psixologiya üzrə fəlsəfə doktoru BDU-nun sosial və
pedaqoji psixologiya kafedrasının müəllimi*

Südabə Hüseynova,

*Psixologiya üzrə fəlsəfə doktoru, dosent,
AMEA-nın Qafqazşünaslıq İnstitutunun elmi katibi*

Günəl Aslanova,

*Psixologiya üzrə fəlsəfə doktoru, BDU-nun psixologiya kafedrasının əməkdaşı
(Azərbaycan)*

Xülasə. Məqalədə sosial adaptasiyanın sosiallaşmanın xüsusi formalarından biri olduğu göstərilir. Qeyd edilir ki, sosial adaptasiya fərd tərəfindən ictimai mühiti fəal şəkildə assimilyasiya etmə prosesidir. Fərd həm obyekt, həm də uyğunlaşma amili kimi çıxış edir. Sosial mühit həm adaptiv, həm də uyğunlaşa bilən tərəfdir. Buna görə, müxtəlif tədqiqatlarda “sosial adaptasiya” və “sosiallaşma” anlayışları arasındakı əlaqənin vacibliyi göstərilir.

Əksər alimlər adaptasiyanın sosiallaşma ilə əlaqəli olduğunu qeyd edirlər, lakin bu əlaqənin təbiəti fərqlidir. Bir sıra müəlliflər bu anlayışları sinonim kimi şərh edirlər. Bu nöqtəyi-nəzərdən adaptasiyanın sosiallaşma mexanizmlərindən biri olduğu vurğulanır.

Sosial adaptasiya, hər şeydən əvvəl müəyyən bir cəmiyyətdə reallaşmaqdadır. Yəni hər fərd, ancaq doğulduğu və fəaliyyət göstərdiyi cəmiyyət tərəfindən sosiallaşdırılır.

*Bu iş Azərbaycan Respublikasının Prezidenti yanında Elmin İnkişafı Fondunun maliyyə yardımı ilə yerinə yetirilmişdir.

Qrant № EIF/MQM/ ELM-TƏHSİL-1-2016 -1(26)-71/09/5